

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDADI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**5141600 – “Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy
ish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun IV «C» guruh talabasi**

**JUMABOYEVA SHAHNOZAXONNING
“TO‘RTINCHI SINF ONA TILI DARSLARIDA “OT”
MAVZUSINI O‘RGATISHDA O‘QUVCHILARNING YOZMA
NUTQINI O‘STIRISH”
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Z.Isaqov,
katta o‘qituvchi.**

Q O ‘ Q O N – 2 0 1 1

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV “C” guruh talabasi Jumaboyeva Shahnozaxonning “To‘rtinchi sinf ona tili darslarida “Ot” mavzusini o‘rgatishda o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

HAQIDA

Talaba bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzib, shu asosda ishni bayon eta olgan. Ishni bayon etishda fikrlar ketma-ketligiga rioya qilingan. Har bir bo‘lim yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqarilgan va umumiy xulosalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsifi – kirish qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi to‘la ochilgan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari belgilanib, ot turkumining grammatik xususiyatlari, boshlang‘ich sinflarda ot turkumiga oid bilimlar berishdagi izchillik yoritilgan.

Ikkinchi bobda 4- sinfda “Ot – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda ta‘limning zamonaviy usullaridan, ta‘limiy diktant turlaridan foydalanish yo‘llari, otlarning egalik qo‘shimchalari yuzasidan ma‘lumot berish, “Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan ishlatilishi” mavzusini o‘qitishda ta‘limning interfaol usullaridan, “Ot yasovchi qo‘shimchalar” mavzusini o‘qitishda tarqatma materiallardan foydalanish usullari bilan ishlash metodlari ancha keng yoritilgan.

Xulosa qismida ot turkumiga oid bilimlar berish orqali o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini oshirish omillari yoritilgan.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar dalillangan. Amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratgan. Biroq ishni diqqat bilan kuzatganimizda, quyidagi kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

1. Ishning ayrim o‘rinlarida imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid nuqsonlar uchraydi.

2. Ayrim o‘rinlarda bayonchilikka berilgan va oqibatda shakl-mazmun birligi biroz buzilgan.

Ishdagi ayrim kamchiliklar bitiruv malakaviy ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmasligini hisobga olib, ish oliy maktab talablariga mosligiga asoslanib, BMIning himoyaga tavsiya etaman.

Ish rahbari:

Z.Isaqov,

BTM kafedrası katta o‘qituvchisi.
5- aprel 2011- yil.

BUYUK VA MUQADDASSAN, MUSTAQIL VATAN!

TO‘RTINCHI SINF ONA TILI DARSLARIDA “OT” MAVZUSINI O‘RGATISHDA O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI O‘STIRISH

R E J A :

Ishning umumiy tavsifi.

I. BOB.

1-§. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari.

2-§. Ot turkumi va uning grammatik xususiyatlari.

3-§. Boshlang‘ich sinflarda ot turkumiga oid bilimlar berishda izchillikning ahamiyati.

II. BOB.

1-§. 4- sinfda “Ot – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish.

2-§. Otlarning egalik qo‘shimchalari yuzasidan ma’lumot berish orqali o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish usullari.

3-§. 4- sinfda “Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan ishlatilishi” mavzusini o‘qitishda o‘quvchilar yozma nutqini o‘stirish.

4-§. “Ot yasovchi qo‘shimchalar” mavzusini o‘qitishda tarqatma materiallardan foydalanib, o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish.

Xulosa.

Ot turkumiga oid bilimlar berish orqali o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishning ma’naviy-axloqiy omillari.

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Agar o'zbek tilining so'z va iboralarini zamon-u makon nuqtai nazaridan cheklamay yig'lsa, dunyodagi eng ko'p so'zli lug'atlardan ulug'roq lug'at tuzish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilining boyligi va etukligini ta'minlovchi ichki vositalar bor. Bu – ushbu tilda so'z va uning shakllarini yasovchi qo'shimchalar ko'pligi, qoidalarining istisnosizligi hamda ta'biri (bayon qilish, ifoda) soddaligidir (15-3).

Ona tili ta'limi boshlang'ich ta'limda asosiy fanlar sirasiga kirib, o'quvchi tafakkuri, aqliy salohiyatini rivojlantiruvchi manbalardan biridir. O'quvchi o'z ona tilini puxta o'rganib olsagina, uning zehni, aqli, ongi va umumiy madaniy darajasi ortadi. O'z tilining keng imkoniyatlaridan og'zaki va yozma nutqda bimalol foydalana oladigan shaxsgina xalq yaratgan madaniy-tarixiy boylıklardan xabardor bo'ladi hamda boshqa fanlar asosini chuqur o'zlashtirishga dadil kirisha oladi.

Og'zaki hamda yozma nutqdan foydalanish malakasiga ega bo'lgan o'quvchi kelgusida ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotda faol ijodiy faoliyat ko'rsata oladi. Mustaqil turmushda uning ona tilidan bilganlari, to'g'ri yozish va o'qish malakalari, mazmunli va chiroyli so'zlash san'ati, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalari, ish qog'ozlari bilan muomala qila olish malakasi ko'l keladi. SHuning uchun ham uzluksiz ta'limda ona tili fanini o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash masalasi bugungi zamonaviy ta'lim jarayonining zaruriy muammolaridan sanaladi.

Fanni o'qitishda, xususan, ona tili ta'limida nazariyani amaliyotga bog'lash deganda, o'quvchilarning tildan egallagan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo'llashni ta'minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish tushuniladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Munozaraga tashlanayotgan muammo yuzasidan atroflicha ishlar qilingan, juda ko'plab metodik tavsiyalar mavjud bo'lsa-da, ammo to'rtinchi sinfda ot turkumi ustida ishlash orqali o'quvchilarning

yozma nutqini rivojlantirish, ularning bu malakalarini o‘stirish yuzasidan nazariy hamda amaliy ishlar barmoq bilan sanarli bo‘lganligi sababli shu mavzuga doir biz tomonimizdan aytiladigan juda ko‘plab mulohazalarni o‘rtaga tashlab, bahsga tortmoqchimiz.

Ishning maqsad va vazifalari.

Malakaviy ishimiz uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgiladik:

- boshlang‘ich sinf ona tili va adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalarini belgilab, ishimizni tartiblash;
- “Ot – so‘z turkumi” va uning grammatik xususiyatlariga to‘xtalib, o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalarini belgilash;
- boshlang‘ich sinflarda ta’limiy ish turlari o‘tkazish yo‘llarini tahlil etish;
- boshlang‘ich sinflarda ot turkumiga oid bilimlar berishda izchillik metodini aniqlash;
- 4- sinfda “Ot – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda ta’limiy diktantlardan foydalanib, o‘quvchilarning nutqini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish;
- 4- sinfda “Otlarning ma’no turlari” mavzusini o‘qitishda ta’limiy ish turlaridan foydalanib, o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llarini tavsiya etish;
- 4- sinfda “Ot yasovchi qo‘shimchalar” mavzusini o‘qitishda tarqatma materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutq boyliklarini oshirish vositalariga to‘xtalish.

Ishning ilmiy yangiligi. Ona tili darslarida ot turkumiga oid nazariy bilimlar berishda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish yuzasidan yo‘riqlarini tavsiya qilish, o‘quvchilarning bilish malakalarini o‘stirish orqali Mustaqillikning sodiq farzandlari – bunyodkorlarini yetishtirish, tilimizning chiroyli, mazmundor ta’sirli tomonlarini to‘g‘ri hamda o‘rinli ishlatish malakalarini hosil qilish yo‘llarini taklif etish.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda boshlang‘ich sinflarda ot turkumi yuzasidan grammatik bilimlar berish orqali o‘quvchilarning yozma nutqini

o‘stirish ustida nazariy ma’lumotlar keng va atroflicha o‘rtaga tashlandi, berilgan tavsiyalardan zamonaviy o‘qitish sistemamizga tatbiq qilindi. Ish materiallaridan boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi va talaba tanlov fanlari mashg‘ulotlarida nazariy material sifatida foydalanish mumkin. Ishdan amaliy jihatdan o‘rta maktabning boshlang‘ich ta’limida va pedagogika institutlarining tegishli bo‘limlari talabalari bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi loyihalari uchun material sifatida hamda bitiruv malakaviy amaliyot davomida amaliy foydalanish mumkin.

Ishning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Ish amaliy jihatdan 2011 yil fevral-may oylarida umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf ona tili darslarida malakaviy amaliyot davrida sinovdan o‘tkazilgan, ishning xulosa va tavsiyalaridan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va talabalar amaliy ish sifatida foydalanishlari mumkin bo‘lganligi sababli o‘qitishdagi muammolarni ijobiy echishga yordam beradi, deb umid qilamiz.

Ishning tuzilish va umumiy hajmi. BMI ishning umumiy tavsifi, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi – 57 sahifa.

I. BOB.

1-§. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari

Ta'lim tizimimizda ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrlı standart mezon orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni berilgan matndan minutiga nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi belgilangan. Sinf dan sinfga o'tish, miqdoriy ko'rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga, berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini anglash, o'zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash malakasi o'quvchining og'zaki bayon qilayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrning ko'rsatkichlari o'quvchi 1 minutda qancha sahifa matnni o'qishi, o'zgalar fikrini

va matn mazmunini anglash hamda uni ogʻzaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon boʻlib, ona tili taʼlimining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va oʻquvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr boʻyicha taʼlim sifatining natijasini baholashda oʻqituvchi tomonidan quyidagi koʻnikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik.

Mazkur standart mezonlarining oʻzaro uzviy bogʻliqligi (integratsiyasi)ni nazarda tutib, oʻqish, ona tili taʼlimida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

Boshlangʻich taʼlimda ona tili taʼlimi mazmunining negizi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- gap va nutq, nutq tovushlari, ona tilining fonetik tizimi (fonetik tahlil – unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar), tovushlar va harflar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi;

- boʻgʻin va boʻgʻin tuzilishi, soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirish;

- soʻz va soʻz maʼnolari (lugʻaviy tahlil – bir maʼnoli soʻzlar, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar, koʻp maʼnoli soʻzlar);

- soʻz tarkibi: oʻzak va qoʻshimcha (turlovchi va yasovchi), oʻzaklarda tovush oʻzgarishi, bir necha shakldagi qoʻshimchalar (oʻzak va qoʻshimchalar imlosi);

- soʻz – nomlash mazmuniga koʻra guruhlash: predmetlar nomini bildiruvchi soʻzlar, predmetlarning harakatini, belgisini, sanogʻini bildiruvchi soʻzlar, predmetga ishorani ifodalovchi soʻzlar (shaxsga nisbatan – kishilik olmoshi);

- gap, gapning fikr bildirish maqsadiga koʻra turlari (darak, soʻroq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta,

so‘roq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar : vergul, qavs, ikki nuqta, ko‘p nuqta;

- gapning tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi bo‘laklar (ega va kesim), asosiy mazmunini to‘ldiruvchi bo‘laklar (ikkinchi darajali bo‘laklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

- gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘zlar birikmasi (ega va kesim munosabatidan mustasno), gapning uyushiq bo‘laklari, ularning o‘zaro bog‘lanishi (ohang, bog‘lovchi so‘z yordamida);

- gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xatboshi, dialog, monolog gaplar, bayon, kichik insho, og‘zaki, yozma ijodiyot;

- xabar, xat, maqola, tabriknoma, taklifnoma, e‘lon yozish, ro‘yxat tuzish.

- alifbe davrida kitob bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish;

- so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

- bo‘g‘inlab o‘qishdan ongli, sidiq‘asiga, tez, to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qishga erishish;

- kichik hajmli bir necha she‘rni yod olish;

- 2-3- sinflarda yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida to‘laroq tushuncha hosil qilish;

- badiiy asarlarni sharhli, ijodiy va ifodali o‘qish;

- asar syujeti voqealari o‘rtasidagi bog‘lanishni, qahramonlarning fe‘l-atvorlarini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;

- o‘qigan asarlari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki va yozma tarzda izchil ifodalash;

- so‘z boyligini oshira borish va nutqida faol qo‘llash;

- 4- sinfda o‘qigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;

- badiiy asarlarni estetik tahlil qilish;

- o‘qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;

- nasriy asar mazmunini to‘liq, qisqartirib, shaxsini o‘zgartirib hikoyalash;

- badiiy asarlarni o‘zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.

4- sinf

O‘qish texnikasi

Miqdoriy ko‘rsatkich: minutiga 80-90 so‘z.

Talablar:

a) so‘z va iboralarni to‘g‘ri, obrazli o‘qiy olish;

b) gap ohangiga rioya qilgan holda ravon o‘qish;

v) gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;

g) sanash va ajratish ohanglaridan to‘g‘ri foydalanish;

d) ohangga rioya qilish;

e) ilmiy atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish.

j) 20 ta she‘rni yoddan bilishlari, ertak, maqol, tez aytish, topishmoq, qo‘shiq, alla, hikoya, qissa kabilar haqida ta‘rif bera olishlari lozim.

Matnning xarakteri: til jihatdan ravon, nasriy-nazmiy bolalar adabiyoti hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari.

O‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi

Miqdoriy ko‘rsatkich: 10 minutda 4-5 sahifa.

Talab:

Og‘zaki nutqning to‘g‘ri, ravon va ta‘sirchan bo‘lishi, monologik nutqning ravonligi, dialogik nutqda o‘zaro muloqotning ta‘sirchanligi, izchilligi, mantiqiy jihatdan aniqligi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Miqdoriy ko‘rsatkich: 75-80 so‘zdan iborat diktant yoza olish.

talablar:

a) imlo-xatolarga yo‘l qo‘ymaslik;

b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: saylanma diktant, lug‘at diktanti, ta‘kidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktant, izohli diktant, ko‘rsatkich diktant.

Miqdoriy ko'rsatkich: 5-6 gapdan iborat bo'lgan matn (fikir ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

a) matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, mavzu doirasida birlashishi;

b) matnda xatboshining yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash;

d) uyadosh so'zlardan (gul: atirgul, ra'nogul, binafsha, lola) foydalana olish.

Matnning xarakteri: xotira asosida manzara, voqea-hodisa, narsa-buyum, joy, kinofilm va hokazolarning tasviri, kichik insho, xat-xabar.

2-§. Ot turkumi va uning grammatik xususiyatlari

Ona tili fanining grammatika qismi ikki bo'limga – morfologiya va sintaksisga ajratiladi. Morfologiya ham, sintaksis ham o'z tekshirish ob'ektiga ega bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan.

Morfologiya (grek. *morrhe* – «shakl», *logos* – «ta'limot») so'zlarning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zning o'zgarishi va shu o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar, so'zning tuzilishi va tarkibi o'rganiladi. So'zlarning o'zgarishi umumiy struktura belgilariga ega bo'lgan so'z gruppalari bilan bog'langan, shuning uchun morfologiya ma'lum belgilari asosida bir-biridan farq qilgan so'z guruhlarini – so'z turkumlarini ham tekshiradi.

Sintaksis (grekcha «tuzish») gapning grammatik xususiyatlarini, gap qurilishi va turlarini tekshiradi. Gap qurilishi uchun ohang, so'zlarning birikishi, predikativlik va so'z tartibi kabi sintaktik vositalar muhimdir.

Morfologiya bilan sintaksisning bir-biridan farqi shundaki, morfologiyaning tekshirish ob'ekti – so'z. Unda so'zning u yo bu formalari, xususiyatlari tahlil qilinadi.

Sintaksisning tekshirish ob'ekti gap bo'lib, gap tuzilishi, so'z birikmalari va so'zlarning bog'lanish yo'llari tahlil etiladi.

Morfologiya soʻzni til sistemasida olib qaraydi, alohida soʻz shakllari va ularning qanday bogʻlanganligini aniqlaydi. Masalan, bosh kelishikdagi *qishloq*, *gʻoʻza* soʻzlari qaratqich kelishigida *qishloqning*, *gʻoʻzaning*, chiqish kelishigida *qishloqdan*, *gʻoʻzadan* kabi shakllar bilan bogʻlangan. Shuningdek, *koʻrdim*, *koʻrganman*, *koʻraman* kabi shakllar ham oʻzaro bogʻlangan. Demak, morfologiya turlanish va tuslanishning xususiyatlarini tekshiradi, soʻzning morfologik tarkibi, uning shakllari va grammatik maʼnolari, soʻz turkumlarini oʻrganadi.

Maʼlumki, morfologiya bilan bir qatorda leksikologiya ham soʻzni tekshiradi. Soʻz morfologiyada ham, leksikologiyada ham asosiy tekshirish obʼekti hisoblanadi. Har bir soʻz murakkab leksik-grammatik butunlikni tashkil etadi. Soʻzning leksik maʼnolari yigʻindisi uning leksik birlik ekanligini bildirsa, grammatik formalar majmuasi va ular anglatgan grammatik maʼnolar soʻzning grammatik birlik ekanligini koʻrsatadi. Shu sababli soʻzlar, bir tomondan, leksikologiyada, ikkinchi tomondan, morfologiyada tamoman boshqa-boshqa nuqtai nazardan, boshqa maqsadda oʻrganiladi. Leksikologiyada soʻzlar tilning leksik tarkibini, uning leksik sistemasini belgilash, soʻzning leksik maʼnosi, uslubiy xususiyatlari, qoʻllanishi va boyib borish yoʻllarini aniqlash nuqtai nazaridan oʻrganilsa, morfologiyada esa soʻz oʻzgarishiga xos grammatik qoida va qonuniyatlarni belgilash, grammatik maʼnolarni ifodalash vositalarini aniqlash maqsadida oʻrganiladi. Masalan, *daraxt*, *bin*, *qush*, *bolalik*, *bahor*, *qishloq* kabi soʻzlar boshqa-boshqa leksik maʼnoga ega boʻlib, leksikologiya shu maʼnolarni, ularning uslubiy va qoʻllanish xususiyatlarini tekshiradi. Morfologiyada esa bu soʻzlar bir xil umumiy xususiyatga ega boʻlgan til hodisasi boʻlib, ularning predmetlikni anglatishi, kelishik, egalik, grammatik son singari kategoriyalarni koʻrsata olishi va boshqa xususiyatlari aniqlanadi.

Soʻz kishi ongidagi, borliqdagi narsa, harakat, belgi va hodisalar haqidagi tushunchani bildiradi. Tushuncha esa borliqning kishi ongida aks etishi natijasida hosil boʻladi. Soʻzning tushuncha anglatishi soʻz leksik maʼnosining asosini tashkil etadi, leksik maʼno har bir soʻzda individual boʻladi. Ammo

mustaqil soʻzlar faqat birgina leksik maʼno anglatib qolmay, balki oʻzaro bogʻlangan bir qancha qoʻshimcha maʼnolarni ham anglatadi. Masalan, *paxtalar*, *kitoblar*, *ishladilar*, *keldilar* kabi soʻzlar leksik maʼnodan tashqari, boshqa maʼnoni ham bildiradi. Bunday maʼno faqat bir soʻz uchungina xos boʻlmay, balki soʻzlar guruhi uchun umumiy boʻladi. Masalan, *paxtalar* soʻzi texnika ekinini anglatadi, *kitoblar* soʻzi oʻquv qurolini; *keldilar*, *ishladilar* soʻzlari esa biror tomonga qarab harakat qilish, biron ish bilai shugʻullanishni anglatadi. Bular – shu soʻzlarning leksik maʼnosi. Bu soʻzlarda koʻshimcha maʼno – koʻplik maʼnosi ham ifodalanadi. Soʻzlar guruhi uchun xos boʻlgan bunday umumiy maʼnolar grammatik maʼno deyiladi. Demak, har bir mustaqil soʻzda ikki xil maʼno – leksik va grammatik maʼno oʻzaro bogʻlangan holda birgalikda ifodalanadi. Jumladan, *qoʻshiqchi*, *oʻyinchi*, *dutorchi* kabi soʻzlarning har birida moddiy leksik maʼno – qoʻshiq aytish, oʻynash va dutor chertish bilan shugʻullanuvchi shaxs maʼnosi hamda grammatik maʼno – birlik son, bosh kelishik maʼnolari birgalikda ifodalanadi. Oʻzaro bir-biriga zid qoʻyilgan va qiyosan olingan grammatik maʼnolar sistemasi va ularga xos ifoda vositalari – grammatik shakllar sistemasi grammatik kategoriya deyiladi. Masalan, otlarga xos kelishik maʼnolari va ularning ifoda shakli boʻlgan kelishik shakllari sistemasi kelishik kategoriyasini hosil qiladi. SHuningdek, otlarda egalik kategoriyasi, son kategoriyasi, feʼllarda shaxs-son kategoriyasi, nisbat(daraja) kategoriyasi kabilarning har qaysisi oʻziga xos grammatik maʼnolar majmuasiga va shu maʼnolarning ifoda shakllari sistemasiga ega. Soʻz tilning eng muhim birliklaridan biri boʻlib, shakl yasalishiga ega boʻlishi yoki ega boʻlmasligi mumkin. Masalan, *kitob* soʻzi ot turkumiga mansub, shunga koʻra *kitobim*, *kitobing*, *kitobi*; *kitob* va *kitoblar*; *kitobga*, *kitobni*, *kitobning*, *kitobdan*, *kitobda*, *kitobimning*, *kitobingni*, *kitoblarimizga*, *kitoblaringizdan* kabi shakliy oʻzgarishlar sistemasiga ega.

Soʻzning grammatik maʼnolari jihatidan farqlanadigan har bir shakli soʻzshakl deyiladi. Soʻzshakllarning yasalishida qatnashib, har xil grammatik maʼno anglatadigan qism soʻzning morfologik tuzilishini tashkil qiladi. Masalan,

kitoblarimdan soʻzi oʻz morfologik tuzilishi jihatidan *kitob-lar-im-dan* tarzida boʻlinadi. Bu soʻzda *kitob* – oʻzak morfemasi, shakl yasash asosi, *-lar* – koʻplik shakli yasovchi morfema, *-im* – egalik shakli yasovchi morfema va *-dan* – chiqish kelishigi shakli yasovchi morfema. *Oʻqiyotirmiz, yozdingiz, shaharlarimizda, maktablaringizning* singari soʻzlar ham morfologik tuzilish jihatidan *oʻqi-yotir-miz, yoz-di-ngiz, shahar-lar-imiz-da, maktab-lar-ingiz-ning* tarzida boʻlinadi. Bularda *oʻqi, yoz, shahar, maktab* morfemalari shakl yasash asosi, undan keyingi morfemalar esa shakl yasovchi vositalar – **affikslar** hisoblanadi.

Soʻzlar oʻz mavhum grammatik maʼnolari, morfologik belgilari va grammatik kategoriyalariga qarab, soʻz yasash, shakl yasash va soʻz oʻzgartish xususiyatidan farq qiladi. Soʻzlarning mavhum **grammatik maʼnosi, morfologik** va **sintaktik belgilariga** qarab guruhlariga boʻlinishi soʻz turkumi deyiladi.

Har bir turkum oʻziga xos mavhum grammatik maʼnoni anglatadi va shu turkumga xos grammatik maʼno ifodalovchi vositalarga ega boʻladi. Jumladan, ot turkumi «**predmetlik**» maʼnosini (*shahar, sadoqat, doʻstlik, kishi*), feʼl turkumi «**harakat**»ni (*yoz, ishla, koʻkar, tinchi, boshla*), sifat turkumi esa «**belgi**» maʼnosini (*katta, goʻzal, baland, shirin, qadimgi, bilimli*) anglatadi. Ot, sifat, feʼl va boshqa soʻz turkumlari anglatgan bu mavhum maʼnolar **grammatik maʼnoga** kiradi. Bunday mavhum grammatik maʼno soʻzlarni turkumlarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi. U, ayniqsa, leksik maʼnosi bilan grammatik maʼnosi bir-biriga mos boʻlgan soʻzlarda katta oʻrin tutadi, soʻzlarni turkumlashda grammatik belgilar ham albatta hisobga olinadi. Soʻz turkumlarini xarakterlovchi grammatik belgilar xilma-xildir.

Soʻzning morfologik belgilari, asosan, uning maxsus shakl yasash va soʻz oʻzgartish shakllariga ega yoki ega emasligida koʻrinadi. Masalan, ot kelishik va egalik affiksini olib **turlansa**, feʼl shaxs-son va zamon affiksini olib **tuslanadi**.

Soʻzning gapda qanday gap boʻlagi vazifasida kelishi va boshqa soʻzlar bilan sintaktik munosabatga kirisha olishi soʻz turkumlarining sintaktik belgisiga kiradi, Masalan, predmetlikni bildirgan ot gapda ega va toʻldiruvchi vazifasida keladi. Bu otning muhim belgisidir. Boshqa soʻz turkumlari ega va toʻldiruvchi vazifasida kelish uchun otlashadi (*Yaxshiga taqlid qil*). Otlar gapda feʼl, sifat, son kabi qator soʻz turkumlari bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi. Hozirgi oʻzbek tilida soʻzlar mavhum grammatik maʼnolari, morfologik va sintaktik belgilariga qarab 5 guruhga boʻlinadi:

- 1) mustaqil soʻzlar;**
- 2) yordamchi soʻzlar;**
- 3) modal soʻzlar;**
- 4) undovlar;**
- 5) taqlidiy soʻzlar.**

Mustaqil leksik va grammatik maʼnoga ega boʻlib, gapning biror boʻlagi vazifasida keladigan, shunga muvofiq shakl yasash xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar **mustaqil soʻz** deyiladi.

Mustaqil soʻzlar voqea-hodisalar haqidagi tushunchalar (predmet, belgi, harakat, miqdor)ni ifodalaydi. SHunga koʻra ularga xos asosiy belgi – leksik maʼno anglatish sanaladi.

Mustaqil soʻzlar uchun ikkinchi umumiy belgi gap boʻlagi vazifasida kelishi hisoblanadi.

Uchinchi, juzʼiy, lekin muhim belgi – soʻz yasash, shakl yasash va forma oʻzgartish xususiyatiga ega boʻlishi sanaladi. Keyingi sanalgan hodisalar barcha mustaqil soʻz turkumlariga birdek xos emas. **Ot, sifat, son, olmosh, feʼl va r a v i s h** mustaqil turkumlarga kiradi. Ot narsani bildiradi; son, kelishik, egalik kategoriyalariga ega; gapda ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi hamda hol vazifalarida keladi.

Sifat narsaning belgisini bildiradi; asliy va nisbiy bo'ladi; ozaytirma va orttirma darajalari bilan xarakterlanadi; gapda aniqlovchi va kesim, otlashganda esa ega, to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Son narsaning miqdorini bildiradi, gapda asosan, aniqlovchi, ayrim hollarda kesim, ega vazifalarida keladi.

Olmoshlar ot, sifat, son kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanadi, lekin narsa, belgi, miqdor kabilarni ifodalamaydi, balki ularni ko'rsatishga xizmat qiladi. Qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, o'sha so'z turkumi bajargan sintaktik vazifalarda keladi.

Fe'l narsaning harakat va holatini anglatadi; mayl, zamon, shaxs-son, nisbat kategoriyalariga ega; gapda kesim, uning xoslangan shakllari esa aniqlovchi, hol va to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Ravish esa asosan harakatning belgisini anglatadi, gapda, asosan, hol vazifasida qo'llanadi.

Yordamchi so'zlarning mustaqil so'zlardan farqi shundaki, ular leksik ma'no anglatmaydi, morfologik jihatdan o'zgarmaydi, gap bo'lagi vazifasida kelmaydi, yasaliş xususiyati ham yo'q.

Leksik ma'noga ega bo'lmay, faqat xilma-xil munosabatlarni ko'rsatish, so'z va gaplarni o'zaro bog'lash yoki ularga nozik qo'shimcha ma'no qo'shishga xizmat qiladigan so'zlar **yordamchi so'zlar** deyiladi. Yordamchi so'zlarga *ko'makchi, bog'lovchi, yuklama* kiradi.

So'zlovchining gapda ifodalangan fikrga yoki fikrning borliqqa munosabatini ko'rsatadigan so'zlar **modal so'zlar** deyiladi. Ular tasdiq, ishonch, gumon kabi xilma-xil modal ma'nolarni ifodalaydi, gapda kirish so'z va butun bir gap sifatida qo'llanadi.

Undovlar alohida guruhni tashkil qiladi. Ular turli-tuman his-tuyg'ularni, xitob, chaqiriq, undash kabilarni anglatadi.

Taqlidiy so'zlar borliqdagi jonli va jonsiz predmetlarning ixtiyoriy hamda

ixtiyorsiz ravishda chiqargan tovushlarini taqlidan ifodalaydi.

Soʻzlarning maʼlum turkumlarga ajratilishi qotib qolgan – oʻzgarmaydigan hodisa boʻlmay, balki oʻzbek tili grammatik qurilishining rivojlanishi, yangi grammatik xususiyatlarning asta-sekin toʻplana borishi natijasida bir turkumdagi ayrim soʻz boshqa turkumga oʻtishi mumkin. Soʻzlarning bunday oʻzaro oʻtish hodisasi soʻzning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarining oʻzgarishi bilan bogʻlangan. Masalan, oʻzbekcha *kunda* soʻzi asli *kun* soʻzining oʻrin kelishik shakliga teng boʻlib, shu shaklida leksik va grammatik jihatdan oʻzgarib, ravishga koʻchgan. Bu ravishni endi oʻrin kelishigidagi ot deb qarab boʻlmaydi.

Bir turkum soʻzining boshqa turkumga oʻtish hodisasini bir turkum soʻzining nutqda boshqa turkum soʻzi oʻrnida ishlatilish hodisasidan farqlash kerak.

Oʻzbek tilida bir turkum soʻzining boshqa turkum soʻzi oʻrnida qoʻllanishi quyidagicha:

a) sifatlarning otlashishi: *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.*

b) otlarning sifat oʻrnida qoʻllanishi: *Asfalt yoʻldan mashinalar gʻizillab oʻtmoqda.*

v) sonlarning otlashishi: *Bolalarimizning kattasi oltiga qadam qoʻydi.*

g) ravishlarning otlashishi: *Koʻpdan koʻp aql chiqar.*

d) sifatdoshlarning otlashishi: *Bahor qoʻshigʻin kuylaganlarning gulshani xazonsiz, iqboli mangu.*

e) sifatning ravish oʻrnida, ravishning sifat oʻrnida qoʻllanishi: *Usta aka soʻzlarni salmoq bilan samimiy va chiroyli gapirdi. Oz soʻz – soz soʻz.*

Bir turkum soʻzi boshqa turkum soʻzi oʻrnida qoʻllanganda u butunlay keyingi soʻz turkumiga oʻtib ketmaydi, aksincha, avvalgi soʻz turkumi doirasida qoladi. Jumladan, *tosh* yoʻl, *atlas* koʻylak, *yaxshining* sharofati, *koʻpga* boq kabi misollarda *tosh*, *atlas* otlari sifat oʻrnida, *yaxshi* sifati va *koʻp* ravishi ot oʻrnida kelgan, biroq ular soʻz sifatida ot, sifat, ravishligicha qoladi.

Predmetlik maʼnosini angladigan soʻz turkumi *ot* deyiladi. Ot bu maʼnoni *son*, *egallik* va *kelishik* grammatik kategoriyalari ifodalaydigan maʼno bilan birgalikda

anglatadi. Ot turkumiga kirgan soʻzlar semantik jihatdan turli-tumandir. Otlarga borliqdagi narsa-predmetlarni anglatgan (*uy, dala, daraxt, uzum, shahar*), shaxs bildirgan (*yigit, kishi, ota, ayol, qiz*), jism va modda nomini bildirgan (*suv, un, qand, sut, asal, qor*), jonli narsalar va organizmlarni bildirgan (*qush, kaklik, tovuq, bakteriya, mikrob*), soʻzlar bilan birga, belgi-xususiyat, harakat va holat nomlari kabi turlicha mavhum tushunchalarning nomlarini bildirgan (*shodlik, qoʻrqinch, tezlik, qizillik, shovqin, saylov, yigʻilish, ishlab chiqarish, kurash*) soʻzlar kiradi. Chunki bu soʻzlarning hammasi bir umumiy maʼnoni – predmetlik maʼnosini anglatadi. Otning asosiy morfologik belgilariga grammatik son, egalik, kelishik kategoriyalari kiradi. Otlarda shu grammatik kategoriyalarga mos ravishda grammatik shakllar sistemasi mavjud boʻlib, ular orqali xilma-xil grammatik maʼnolar ifodalanadi. Kelishik va egalik shakllari otning gapda boshqa soʻzlar bilan bogʻlanishini, kelishik shakllari turlicha sintaktik vazifalarda kelishini koʻrsatadi: *Hozirgi zamonda dadil qadam tashlay olmagan kishi turtinib, chetga chiqib qoladi. Dilingda joʻsh urar shodlikning seli.*

3-§. Boshlangʻich sinflarda ot turkumiga oid bilimlar berishda izchillikning ahamiyati

Soʻz turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi soʻzlarining leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga koʻra turli gruppalariga ajratilishi – soʻz turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

Soʻzlarni leksik grammatik turkumlarga ajratishda 3 belgiga:

- 1) leksik maʼnosi (nimani ifodalashi, yaʼni predmet, harakat yo holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan maʼnolari);
 - 2) morfologik (soʻzning turli shakl tizimi);
 - 3) sintaktik (turli morfologik shakllarning sintaktik vazifa bajarishi)
- belgilariga asoslanadi.

Demak, soʻz turkumlari ustida ishlash oʻquvchilarning muayyan guruhdagi soʻzlarning umumlashtirilgan maʼnolari, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi lozim.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari soʻz turkumi bilan umumiy tanishtirilgandan soʻng har bir leksik-grammatik guruh alohida oʻrganiladi. Bu soʻz turkumlarini oʻrganishning boshlangʻich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va bu bilan shakllantiradigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ot, sifat, son, feʼlning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

1) soʻz nima bildirishi (predmet, predmet belgisi, predmet sanogʻi va tartibi, predmet harakati yoki holati);

2) qanday soʻroqlarga javob boʻlishi;

3) oʻzgarish – oʻzgarmasligi;

4) gapda, asosan, qanday boʻlak vazifasida kelishi. Oʻquvchilar mana shu oʻrgangan bilimlari asosida soʻz turkumlarini taqqoslaydilar.

Oʻquvchilar nimani oʻrganganlariga qarab, har bir soʻz turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya, chuqurlasha boradi.

Dasturga koʻra, 1-2- sinflarda soʻzlar javob boʻladigan morfologik soʻroqlariga qarab tasnif qilinadi. 3- sinfda «soʻz turkumi» tushunchasi shakllantiriladi. Oʻquvchilar har bir soʻz turkumiga xoc ayrim belgilar (soʻz turkumlarining umumlashtirilgan leksik maʼnolari, otlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishi, boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar, ot, sifat, son va feʼlning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi.

4- sinfda soʻz turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: oʻquvchilar otlarning egalik va kelishiklar bilan oʻzgarishini, sifat va otning gapdagi vazifasi, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, feʼllarda shaxs-son va zamonni oʻrganadilar.

Boshlangʻich sinflar dasturi oʻquvchilarni soʻz turkumlari mustaqil va yordamchi soʻz turkumlariga boʻlinishi bilan maxsus tanishtirishini koʻzda

tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlariniig belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar ot, sifat, son, olmosh, fe'l gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini biladilar.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirishi hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar predmetlarni va ularni nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar. So'zning leksik ma'nosi (har bir so'z ma'no bildirishi) ga e'tibori oshiriladi, ma'nolarni hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar va xokazolarni bildirgan otlar)ni gruppalash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida gruppalash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash, abstraklashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o'zlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi. (kim yoki nima so'rog'iga javob bo'lishi, predmet bildirishi tushuntiriladi.) O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni nima?

So'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni o'rganadilar. Bu bosqichda ular so'zlarni so'roq berish bilan farqashni bilib oladilar, bolalarda mavhum grammatik tafakkur o'sib boradi. Bolalarda ko'pgina atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllanib boradi.

2- sinfda otlarning leksik ma'nosi, atoqli va turdosh otlar haqidagi bilim chuqurlashtiriladi va sistemalashtiriladi bolalar otlarda son bilan tanishtiriladi.

"Ot" tushunchasini shakllantirish uchun shu so'z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik gruppalariga ajratish, barcha otlarga xos bo'lgan belgilarni ko'rsatish, ularning nutqimizdagi rolini ochish muhim ahamiyatga ega. SHu maqsadda mavzuni o'rganishga bag'ishlangan birinchi darslardayoq predmetlarni bildiradigan so'zlar sistemaga solinadi. Shu so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan belgilar aniqlanadi. Bu so'zlar predmetlarni bildirib, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifat va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan mavhum ma'nodagi (yaxshilik, go'zallik, ishonch, o'kinch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o'quvchilar qiziqib so'rasalar, otlar bolalar o'rgangan belgilari asosida nima so'rog'iga javob bo'lishi, predmet nomini bildirishi tushuntiriladi.

Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun o'qituvchi o'qish kigobidan matn tanlab, o'quvchilarga matndagi otlarni topishni, so'ngra matnni shu so'zlarsiz o'qishni topshiradi. O'quvchilar matndagi otlarni tushirib qoldirib o'qiganda, matn mazmunini tushunib bo'lmasligini anglaydilar. Xulosa chiqariladi: ot atrofimizni o'rab olgan predmetlarning nomi, bu so'zlarsiz bir-birimizga o'z fikrimizni tushuntira olmaymiz.

3- sinfda "Otlarda son" mavzusi, ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda;

1) birlik va ko'plikda qo'llangan otlarni ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash

2) birlikdagi otdan ko'plik sondagi ot va aksincha ko'plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish

3) gapda so'zlarning bog'lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: qalam -qalamlar, nok-noklar kabi. Suhbat asosida nok so'zi nechta (1ta) predmetni va noklar so'zi nechta (2 va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi. (boshqa so'zlar bilan ham shunday ishlanadi) Oddiygina xulosa chiqariladi va umumlashtiriladi; agar otlar bir predmetni bildirsa birlikda, va undan ortiq predmetni bildirsa ko'plikda qo'llanadi. Ko'plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga - lar qo'shimchasi qo'shiladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so'rog'iga, ko'plikdagi otlar esa kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi.

Bu sinf o'quvchilariga faqat birlikda qo'llanadigan otlar, birlik shaklida qo'llangan armiya, qo'shin, xalq kabi otlar ko'plik ma'nosini bildirishi, bunday otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda anglatadigan ma'nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar bu o'quvchilar bu haqida savol bersalar, sodda shaklda tushuntirish mumkin.

Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini kuzatish aslida so'z formasi ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar otlarni ko'plik qo'shimchasi bilan o'zgartirish, ya'ni otga forma yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan so'zning leksik ma'nosi o'zgarmasligiga ishonch hosil qiladilar.

«Otlarda egalik qo'shimchalari» mavzusi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murakkab hisoblanadi. Chunki bu mavzu o'rganilgunga qadar, bolalar "shaxs" tushunchasi bilan xali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlarini hali o'rganmagan bo'ladilar. O'quvchilarga egalik qo'shimchasi predmet birlik va ko'plikdagi 3 shaxsdan biriga tegishli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, o'quvchilarni otlarda egalik qo'shimchalari bilan

tanishtirishda o'qituvchi ishni sarlavhalardagi "Egalik" so'zining leksik ma'nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq; egalik era bo'lish, qarashlilik, tegishlilik, oidlilik ma'nolarini bildiradi, demak, egalik qo'shimchasi deyilganda biror narsaga ega bo'lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo'shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. Otga qo'shilgan egalik qo'shimchasi shu ot ifodalagan predmetning kimgadir qarashli ekanini, shu predmetni egasi bildiradi; kecha o'qigan kitobim juda qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra'noning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi so'zlari so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi va o'quvchilar kitob – o'zak, -im, -ing, -i qo'shimchalari qo'shimcha ekanini aniqlaydilar.

O'qituvchi kitobim va kitob so'zlarini taqqoslashni, -im qo'shimchasining ma'nosi haqida o'ylab ko'rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi. Bolalar qo'shimchaning ma'nosi haqida fikr yuritadi. Ammo kitobim so'zining ma'nosiga (mening kitobim – kitob meniki) tushunchalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar. O'qituvchi qisqa tushuntiradi. Tilda 3 ta shaxs mavjud; so'zlovchi yoki 1-shaxs, tinglovchi yoki 2-shaxs, o'zga yoki 3-shaxs.

Hozir men sizga so'zlayapman, tushuntirayapman, demak, men-so'zlovchi, hozir siz meni (tushuntirayotgan mavzuni) tinglayapsiz, demak, siz meni tinglovchi, hozir tinglashga qatnashmayotganlar ham bor, u (ular) – o'zga hisoblanadi. Siz otlar birlik va ko'plik sonda qo'llanishini bilasiz. Ma'lumki, biror narsa bir va shaxsga yoki 2 va undan ortiq shaxsga tegishli bo'lishi mumkin. Mana shu ma'nolarni, ya'ni biror predmetning birlik yoki ko'plikdagi 3 shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qo'shilgan egalik qo'shimchalari bildiradi. Masalan, kitobim so'ziga qo'shilgan, siz aniqlagan -im qo'shimchasi kitobning 1-shaxsga taalluqli ekanini, ya'ni kitobning egasi 1-shaxs ekanini bildiradi. (-im, -ing, -i qo'shimchalari ham shunday tushuntiriladi.) Qisqa shunday xulosa chikariladi;

Otlarga qo'shilgan mana shunday qo'shimchalar egalik qo'shimchalari deyiladi. Egalik qo'shimchalari tegishlilik, egalik ma'nosini bildiradi.

Egalik qo'shimchalari otlarga 2 xil variantda qo'shiladi. Oxiri unli bilan tugagan otlarga -m, -ing, -si. -miz, -ngiz, -si, egalik qo'shimchalari, oxiri undosh bilan tugagan otlarga -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i egalik qo'shimchalari qo'shiladi. Shundan so'ng o'quvchilar "Ona tili" darsligidagi qoidani o'qiydilar. Jadvalni tahlil qiladilar.

O'quvchilarga egalik qo'shimchalari haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun matndan egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan otni topish, uni tarkibiga ko'ra tahlil qilib, egalik qo'shimchasining shaxs sonini aniqlash, matnda berilgan otga tushirib qoldirilgan egalik qo'shimchasini qo'shish, predmet qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Egalik qo'shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi. Otlarning kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan ot qaratqich kelishigida kelgan ot boshqa ot bilan, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida esa egalik qo'shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog'lanib, so'z birikmasi hosil qilish haqida bilim beriladi.

Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi. Kelishik otlarning gapda boshqa so'zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o'zgartirishda o'quvchilarning gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o'quvchilar gapda ma'no va grammatik tomondan bog'langan so'larni (so'z birikmalarini) ajratishga o'rganganlaridan so'ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o'quvchi ot gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so'zlar bilan qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatilib boriladi. Aslida o'quvchilar 1- sinfdan so'z shakllarini o'zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so'z formasi nimaligini bilmaydilar. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi (so'z o'zgartiruvchi)

qo'shimchalar bilan tanishadilar, bu qo'shimchalar gapda so'zlarni bog'lashi uchun xizmat qilishini tushunadilar.

3- sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi:

1. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida ma'lumot berish.

2. Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish.

3. Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarini yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish tushuncha berish bilan o'quvchilarga kelishik qo'shimchalari so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilidagi 6 kelishik, ularning nomi, so'roqlari, qo'shimchalari va joylanish tartibi tushuntiriladi.

O'quvchilar o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imloni o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bajarilgan ish yozib boriladi: O'quvchilar avval gapda ot bog'langan so'zdan shu otga savol beradilar va savolni qavs ichiga yozadilar; keyin so'roqqa kelishikni aniqlaydilar, masalan, yashaydi (qaerda?) – qishloqda (o'rin payt kelishigi) ular buni yaxshi o'zlashtirgandan so'ng, mashq tez bajariladi, yozish talab etilmaydi.

Ko'plikdagi otlarning, turlanishini o'rganishda nutqda ko'plikdagi otlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini takomillashtirish maqsadi ko'zda tutiladi. O'quvchilar suhbat yordamida bosh kelishikdagi otning so'rog'ini va bitta predmetni bildirishini aytadilar. (nima? - kitob, kim? – o'quvchi). O'qituvchi agar shu ot 2 va undan ortiq predmetni bildirsa, qanday so'roqqa javob bo'lishini, qaysi kelishikni bildirishini so'raydi, ular qiynalmay javob beradi (nimalar? - kitoblar, kimlar? - o'quvchilar). Xulosa chiqariladi: ko'plikdagi otlar bosh kelishikda kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi. O'quvchilar otlarning kelishiklar bilan turlanishi jadvalidan foydalanib, shu otlarni ko'plikda turlaydilar va ko'plik

qo'shimchagi doim kelishik qo'shimchasidan oldin qo'shilishini, so'roqlarini bilib oladilar.

Hap bir kelishikning alohida o'rganishning vazifasi kelishikni o'rganish bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi malakani shakllantirish va o'quvchilarning kelishiklar bilan turlangan hollarda ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi.

Kelishiklarni bilib olish maqsadida so'roqlardan foydalaniladi. Buning uchun o'quvchilar, birinchidan, so'roqni otning yakka o'ziga emas, balki gapda ot ma'no tomondan bog'langan so'zdan shu otga berishni o'rganishlari, ikkinchidan, kelishiklarning so'roqlarini yaxshi bilishlari zarur.

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish maqsadga muvofiq: 1. Kelishiklarning grammatik asosi. 2. So'roqlari. 3. Qo'shimchasi. 4. Gapdagi vazifasi. Kelishiklarni shu tarzda o'rganish ularni o'zaro taqqoslashni engillashtiradi va ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bir kelishik o'zining muhim belgilari bilan boshqa kelishiklardan farqlanadi. Muayyan bir kelishikdagi otdan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish uchun o'quvchilar kelishiklarning muhim belgilarini puxta o'zlashtirishi talab etiladi. SHuning uchun ham kelishiklarning muhim belgilarini o'zlashtirib, bir kelishikni ikkinchisidan farqlash ko'nikmasini shakllantirishga katta o'rin beriladi.

O'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini farqlashga qiynaladilar, bir qo'shimcha o'rniga ikkinchisini ishlatadi. Buning oldini olish uchun ikki kelishikning ma'nosi, qo'shimchasi, so'roqlari va gapdagi vazifasi taqqoslanadi, suhbat asosida xulosa chiqariladi.

Boshlang'ich sinf dasturiga ko'ra o'quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida otning belgisiz qo'llanishi bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi.

O'quvchilar jo'nalish kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining yozilishi tushuntiriladi: a) oxiri jarangsiz

undosh tovush bilan tugagan soʻzlarga joʻnalish kelishik qoʻshimchasi -ga qoʻshilganda talaffuzda -ka eshitilishi, ammo aslicha yozilishi tovush harf tomonidan tahlil qilish bilan tushuntiriladi. b) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi oxiri k undoshi bilan tugagan otlarga -ka shaklida qoʻshiladi, oxiri q undoshi bilan tugagan otlarga -qa tarzida qoʻshiladi.

Oʻquvchilar oʻrin-payt kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, kelishik qoʻshimchasida -da ning -ta boʻlib eshitilsa xam da shaklida yoziladi.

Oʻquvchilar chiqish kelishiginiig xususiyatlari bilan ham reja asosida tanishtirilib, ularga kelishik qoʻshimchasining yozilishi tushuntiriladi.

Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaraliligini taʼminlaydigan shartlar maqsadga muvofiq mashq tanlash, mashq materialini asta murakkablashtira borish bilan oʻquvchilarning mustaqilligini oshirish, imloni, grammatik bilimni takomillashtira borishi, oʻquvchilarning nutqini oʻstirish bilan bogʻlab oʻrgatishdir.

SHunday qilib, boshlangʻich sinflarda ot kompleks ravishda oʻrganiladi va uni oʻrganish oʻquvchilar shu soʻz turkumining, funksiyasini oʻzlashtirishga, shuningdek ularda kelishik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozish koʻnikmasini shakllantirishga qaratiladi.

II. BOB.

1-§. 4- sinfda “Ot – so‘z turkumi” mavzusini o‘qitishda ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish

“Ot” mavzusini o‘rgatish tizimi maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, bunda shu so‘z turkumining umumlashtirilgan ma’nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog‘liqlikda o‘rganiladi, shuningdek otdan nutqda to‘g‘ri foydalanish va to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi, bu jarayonda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o‘rganish vazifalari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir sinf uchun material hajmi, ularni o‘rganish izchilligi va o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalari belgilangan.

Boshlang‘ich sinflarda otni o‘rgatish vazifalari: 1) ot haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish; 2) kim? So‘rog‘iga javob bo‘lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko‘nikmasini hosil qilish; 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish; 4) otlarning kelishiklar bilan turlanishini va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqidagi bilimlarni mustahkamlab, malaka hosil qilish; 5) o‘quvchilar lug‘atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq o‘rinli foydalanishi malakasini o‘stirish; 6) so‘zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish hisoblanadi.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda hal etiladi. Shu bilan birga “Ot” mavzusini o‘rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo‘lgan bir vazifani hal qilishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Masalan, I-II sinflarda so‘z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so‘roqlari, birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi)ni o‘zlashtirishga, III-IV

sinflarda otning egalik qo'shimchalari bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi predmetni ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon, asalari, qumursqa), er va osmonga oid narsalar (quyosh, yulduz, daryo, tog') o'simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig'in, majlis), tabiat hodisalari aniqlik, harakat-holat (uyqu, sevish, quvonch) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari otlar birlik va ko'plikda qo'llaniladi. Egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari va grammatik belgilari hiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta-sekin shakllantira boriladi.

Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar predmetlarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosi (har bir so'z ma'no bildirishi)ga e'tibor oshiriladi, ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida guruhlash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash mavhumlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning konkret ma'nosini etarli bilmaydigan so'zlarning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o'zlashtirishi zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi, predmet bildirishi tushuntiriladi). O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlardan nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni farqlashga o'rganadilar. Tabiat hodisalarini, voqealarni bildiradigan so'zlar guruhlariga ajratiladi. Shu so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan belgilar aniqlanadi: bu so'zlar predmetlarni bildirib kim? so'rog'i yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Dasturga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifat va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan mavhum ma'nodagi (yaxshilik, go'zallik, ishonch, sevinch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o'quvchilar qiziqib so'rasalar, otning bolalar o'rgangan belgilari asosida (nima? so'rog'iga javob bo'lishi, predmet nomini bildirishi) tushuntiriladi.

Otlarning nutqda hamma ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun o'qituvchi o'qish kitobidan matn tanlab, o'quvchilarga matndan otlarni topishni, so'ngra matnni shu so'zlarsiz o'qishni topshiradi. O'quvchilar matnni otlarni tushirib qoldirib o'qiganda matn mazmunini tushinib bo'lmasligini aniqlaydilar. Xulosa chiqariladi: Ot atrofimizni o'rab olgan predmetlarning nomi, bu so'zlarsiz bir-birimizga o'z fikrimizni tushuntira olmaymiz.

III sinfda "Otlarda son" mavzusi, ya'ni otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi ustida ishlash jarayonida o'quvchilarda: 1) birlik va ko'plikda qo'llangan otlarni ma'nosi va qo'shimcha orqali farqlash; 2) birlikdagi otdan ko'plik sonidagi ot va aksincha, ko'plikdagi otdan birlik sonidagi ot hosil qilish; 3) gaplarda so'zlarning bog'lanishini hisobga olgan holda otlardan nutqda to'g'ri foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi taqqoslash yo'lidan foydalanib, tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: daftar – daftarlar, qalam – qalamlar, nok – noklar kabi. Suhbat asosida daftar so'zi nechta (bitta) predmetni va daftarlar so'zi nechta (ikki va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi, (boshqa so'zlar bilan ham shunday ishlanadi). Oddiygina xulosa

chiqariladi va umumlashtiriladi: agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda qo'llanadi, agar ikki va undan ortiq predmetni bildirsa, ko'plikda qo'llanadi. Ko'plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so'rog'iga, ko'plikdagi otlar esa kimlar? yoki nimalar? so'rog'iga javob bo'ladi. Bu sinf o'quvchilariga faqat birlikda qo'llanadigan otlar birlik shaklda qo'llangan armiya, qo'shin, xalq kabi otlar ko'plik ma'nosini bildirishi, bunday otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda anglatadigan ma'nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar o'quvchilar bu haqda savol bersalar, sodda shaklda tushuntirish mumkin. Otlarning birlik va ko'plikdagi qo'llanishini kuzatish aslida so'z shakli ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar otlarni ko'plik qo'shimchasi bilan o'zgartirish, ya'ni otga shakl yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan so'zning leksik ma'nosi o'zgarmlasligiga ishonch hosil qiladilar.

Quyida to'rtinchi sinf ona tili darslarida "Ot – so'z turkumi" mavzusini o'tish orqali o'quvchilarning yozma nutqini oshirish borasidagi amaliy ishlarimiz bilan o'rtoqlashsak.

MAVZU: Ot – so'z turkumi (takrorlash)

Darsning maqsadi:

a) o'quvchilarning ot so'z turkumi, uning so'roqlari, atoqli va turdosh otlar, otlarning gapdagi vazifalari haqidagi bilimlarini aniqlash. Bilganlarini darslikdagi mashqlar, tarqatma materlallar orqali mustahkamlash. O'quvchilarning lug'atini me'morchilik obidalari, mutafakkir, mashshoq, homiy, mulozim so'zlari bilan boyitish. So'zlarning ma'nosini izohlash;

b) o'quvchilarni xalqimiz o'tmishiga, ajdodlarimiz yaratgan merosga hurmat ruhida tarbiyalash. Ularning ongiga o'tmishsiz kelajak yo'q degan g'oyani singdirish orqali tarixiy asarlar, me'morchilik obidalarini o'rganish, ularni asrashga o'quvchilarni undash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat metodi.

Darsning jihozlari: shaxs va narsa rasmlari.

Darsning borishi:

1. Saylanma diktant.

Matndagi kim?, nima? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni yozing.

Qalampir, mushtipar, charogʻon, tinchlik, tarixiy, toʻtiqush, handalak, munavvar, haydovchi, oshpaz.

Oʻqituvchi diktant soʻzlarini doskaga yozadi. Oʻquvchilar yozganlarini shunga qarab tekshiradilar.

– Qaysi soʻzlarni daftaringizga yozdingiz?

– Har bir soʻzning ustiga soʻrogʻini yozib qoʻying.

– Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni oʻqing.

– Soʻzlar insonning nimasini bildiradi?

– Munavvar soʻziga yana qanday soʻroq berish mumkin?

– Munavvar soʻzini bosh harf bilan yozsak, qaysi soʻz turkumiga, kichik harf bilan yozsak, qaysi soʻz turkumiga kiradi?

– Nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarni oʻqing.

– Qaysi soʻzlarni yozishda xato qildingiz? (toʻtiqush, handalak, haydovchi.)

– Soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib oʻqing. (toʻ-ti-qush, han-da-lak, hay-dov-chi.)

Soʻzlarning yozilishini doskaga qarab tekshiring. Yozilishini esda tuting. Shu soʻzlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. (Haydovchi avtobusni toʻxtatdi. Polizdan handalakning isi taraldi. Biz hayvonot bogʻida toʻtiqushni koʻrdik.)

– Kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar predmetning nimasini bildiradi?

– Predmetning nomini bildirib, kim?, nima? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar qaysi soʻz turkumiga mansub?

3. Mavzu bayoni.

Kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻlib, predmetning nomini bildirgan soʻzlar ot soʻz turkumi deyiladi. Otlar gapda (ega, aniqlovchi, toʻldiruvchi) bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar vazifasida keladi.

– yuqorida tuzilgan 1-gapdagi otlarga so‘roq bering. (Haydovchi – kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.)

– Gapda qanday bo‘lak vazifasida kelgan? (Ega vazifasini bajargan.)

– Gapning kesimini toping. (Haydovchi nima qildi? – to‘xtatdi. To‘xtatdi so‘zi gapning kesimi bo‘lib kelgan.)

– Gapda yana qanday ot so‘z turkumidagi so‘z bor? (Avtobusni so‘zi.)

– Avtobusni so‘ziga so‘roq berib, qaysi gap bo‘lagi ekanini aniqlang. (Avtobusni – nimani? ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kelgan.)

– Ikkinchi gapdagi otlarga so‘roq bering. (Polizdan – nimadan?, handalakning – nimaning?, isi – nima?)

– Nimadan? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi? (ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib keladi. Polizdan so‘zi ham ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan.)

– Nimaning?, kimning? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar-chi?

(Ikkinchi darajali bo‘lak vazifasini bajaradi. Handalakning so‘zi ham gapda ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kelgan.)

– Gapning bosh bo‘laklarini toping.

(Isi – nima? egasi, isi nima qildi? – taraldi kesimi.)

– Demak, ot so‘z turkumidagi so‘zlar gapda ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi bo‘lib keladi.

4. Darslik bilan ishlash.

148-mashq.

O‘qituvchi hikoyatni o‘qib beradi. Matndagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlar izohlanadi.

Lug‘at ishi.

Mulozim – xizmatchi, amaldorlar huzurida xizmatda bo‘ladigan kishi.

Hazrat – muqaddas zotlarni ulug‘lash uchun ularning ismlari oldidan qo‘llanadi.

Nazar – ko‘z qarashi, nigoh.

- Hikoyat kim va nima haqida ekan?
- Sulton Ulug‘bek kim ekan?
- U qaerga qaytayotgan ekan?
- Ulug‘bek ko‘cha o‘rtasida nimani ko‘ribdi?
- U nonni ko‘rgach, nima qildi?
- Mulozimlar nima deyishibdi?
- Ulug‘bek nima deb javob beribdi?
- Qissadan qanday hissa chiqibdi?
- Siz yana qanday hissa chiqargan bo‘lardingiz? (Non – aziz ne‘mat. Nonning ushog‘i ham non.)

– Hikoyatga shu gaplarni sarlavha qilib qo‘yish mumkinmi? O‘quvchilar matndagi otlarni so‘roqlar yordamida topadilar.

Birinchi gapni husnixat bilan ko‘chiradilar, otlarning gapdagi vazifasini aniqlaydilar.

Gapning bosh bo‘laklarini so‘roqlar yordamida toping.

– Kim qaytayotgan ekan?

(Sulton Ulug‘bek qaytayotgan ekan. Sulton Ulug‘bek gapning egasi Ulug‘bek nima qilayotgan ekan? – qaytayotgan ekan, gapning kesimi.)

– Navbatdagi so‘ziga so‘roq berib, gapdagi vazifasini aniqlang.

(Navbatdagi qaysi? So‘rog‘iga javob bo‘ladi. Gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelgan.)

Gapdagi boshqa otlar ham shu tarzda gap bo‘laklari bo‘yicha tahlil qilinadi va tagiga chiziladi.

149-mashq.

O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Matn yuzasidan suhbat uyushtiriladi.

– Matn nima haqida ekan?

– Matn kimning nutqidan olingan?

– O‘zbekistonning qaysi shaharlari qadimdan mashhur bo‘lgan?

– Bu shaharlar qanday yurtlar bilan aloqada bo‘lgan?

- SHahar nimasi bilan shuhrat qozongan?
- Yurtimizda yashab, o‘z yurtlarini jahonga tanitgan qanday insonlarni bilasiz?
- Amir Temur qaysi shahami o‘z davlatining poytaxti qilgan?
- Temur kimlarga homiylik qilgan?
- SHuhrat qozongan, homiylik qilgan iboralarini izohlang. (Shuhrat qozongan – dong‘i ketgan. Homiylik qilgan-g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan, qaramog‘iga olgan.)
- O‘qituvchi matndagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni izohlab beradi.

5. Lug‘at ishi.

Me’morchilik obidalar – tarixiy obidalar.

Mutafakkir – chuqur fikrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi. Mashshoq – sozanda.

- Matnda nechta gap bor?
- Gaplar maqsadiga ko‘ra qanday mazmun ifodalagan?
- Matnni necha qismga bo‘lish mumkin?
- Matndagi bosh harf bilan yozilgan so‘zlarni yozing.
- So‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi? Ularning qaysi so‘z turkumiga kirishini ayting.

– Nima uchun bu otlar bosh harf bilan yozilgan?

– Toshkent, Samarqand, Buxoro atoqli otlari nimaning nomini bildiradi? (Joylarning nomini bildiradi.)

– Bosh harf bilan yozilgan so‘zlar bir xil so‘roqqa javob bo‘ladimi? (Ha.)

6. Uyga vazifa.

150-mashq.

O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. So‘roqlar yordamida otlarni aniqlaydilar. Daryo, anhor nomlarini va hayvon nomini bildirgan otlarni ajratadilar. O‘zlari bilgan baliq nomlarini sanaydilar.

Uyga bosh harflar bilan yozilgan otlarni bir ustunga, kichik harflar bilan yozilgan otlarni 2-ustunga yozib kelish topshiriladi.

7. Darsda o‘tilganlarni umumlashtirish va mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalaniladi:

- Darsda nima haqidagi hikoyatni o‘qidik?
- Hikoyatlar bizni nima qilishga undaydi?
- Xalqimizda yana nimalar non kabi muqaddas hisoblanadi?
- Yurtimiz nimalari bilan, qanday insonlar bilan mashhur bo‘lgan?
- Otlar narsalarning nimasini bildiradi?
- Ot so‘z turkumidagi so‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?
- Qanday so‘zlarni bosh harf bilan yozamiz?

2-§. Otlarning egalik qo‘shimchalari yuzasidan ma’lumot berish orqali o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish usullari

Otlarda egalik qo‘shimchalari mavzusi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun murakkab hisoblanadi, chunki bu mavzu o‘rganilgunga qadar bolalar “shaxs” tushunchasi bilan hali tanishtirilmagan kelishik olmoshlarini hali o‘rganmagan bo‘ladilar. O‘quvchilarga egalik qo‘shimchasi predmet birlik va ko‘plikdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanini bildirishini tushuntirish qiyin. Shularni hisobga olib, o‘quvchilarni otlarda egalik qo‘shimchalari bilan tanishtirishda o‘qituvchi ishni sarlavhadagi “egalik” so‘zining leksik ma’nosini tushuntirishdan boshlashi maqsadga muvofiq: egalik ega bo‘lish, qarashlilik, tegishlilik, onglik ma’nolarini bildiradi, demak, egalik qo‘shimchasi deganda biror narsaga ega bo‘lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo‘shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi. Otga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi shu ot ifodalagan predmetning kimgadir qarashli ekanini, shu predmetning kimgadir qarashli ekanini, shu predmetning egasi ekanini bildiradi. Misollarni kuzataylik: Kecha o‘qigan kitobim qiziqarli ekan. Sening kitobing ham qiziqarlimi? Ra’noning kitobi ham qiziqarli edi.

Kitobim, kitobing, kitobi so‘zlari so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qilinadi va o‘quvchilar kitob – o‘zak, -im, -ning, -i qo‘shimcha ekanini aniqlaydilar.

O'qituvchi kitob va kitobim so'zlarini taqqoslashni, -im qo'shimchasining ma'nosi haqida o'ylab ko'rishni topshiradi, muammoli vaziyat yaratadi: bolalar qo'shimchaning ma'nosi haqida fikr yuritadilar, ammo kitobim so'zining ma'nosiga (mening kitobim – kitob meniki) tushunchalar ham, fikrlarini shakllantirib aytib berolmaydilar. O'qituvchi qisqa tushuntiradi. Tilda uchta shaxs mavjud: so'zlovchi yoki I-shaxs, tinglovchi yoki II shaxs, o'zga yoki III shaxs. Hozir men sizga so'zlayapman, tushuntirayapman, demak, men – so'zlovchi, hozir siz meni tinglayapsiz, demak, siz (sen) – tinglovchi, siz bilan mendan tashqarilar esa u (ular – o'zga) hisoblanadi. Siz otlar birlik va ko'plik senga qo'llanishini bilasiz. Ma'lumki, biror narsa bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxsga tegihli bo'lishi mumkin. Mana shu ma'nolarni, ya'ni biror predmetning birlik yoki ko'plikdagi uch shaxsdan biriga qarashli ekanini otga qo'shilgan egalik qo'shimchalari bildiradi. Masalan, kitobim so'ziga qo'shilgan, siz aniqlagan –im qo'shimchasi kitobning birinchi shaxsga taalluqli ekanini, ya'ni kitobning egasi I-shaxs ekanini bildiradi (-ing, -i qo'shimchalari ham shunday tushuntiriladi). Kitobimiz so'zidagi -imiz qo'shimchasi kitob so'zlovchi shaxsga shu bilan birga ko'p shaxsga tegihli ekanini bildiradi. (-ingiz, -i qo'shimchalari ham shunday tushuntiriladi). Qisqa xulosa chiqariladi: otlarga qo'shilgan mana shunday qo'shimchalar egalik qo'shimchalari deyiladi. Egalik qo'shimchalari tegishlilik, egalik ma'nosini bildiradi. Egalik qo'shimchalari otlarga ikki variantda qo'shiladi. Akam va kitobim, akang va kitobing, akasi va kitobi kabi oxirgi unli va undosh tovush bilan tugagan otlar so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi, qo'shimchalar taqqoslanadi, suhbat asosida xulosa chiqariladi: Oxirgi unli tovush bilan tugagan otlarga -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si egalik qo'shimchalari, oxiri undosh tovush bilan tugagan otlarga -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i egalik qo'shimchalari qo'shiladi. Shundan so'ng o'quvchilar darslikdagi qoidani o'qiydilar, jadvalni tahlil qiladilar.

O'quvchilarga egalik qo'shimchalari haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun matndan egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan otnitopish uchun tarkibiga ko'ra tahlil qilib, egalik qo'shimchasining shaxs-sonini aniqlash: matnda berilgan

otga tushurib qoldirilgan egalik qo'shimchasini qo'shish, predmet qaysi shaxs yoki shaxslarga qarashli ekanini aytish kabi mashqlardan foydalaniladi. Egalik qo'shimchasi ustida ishlash bu bilan tugamaydi, otlarning kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida egalik qo'shimchasi bilan qo'llangan ot qaratqich kelishigida kelgan boshqa ot bilan (kitobing muqovasi, Rahimning kitobi), kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishini o'rganish jarayonida esa egalik qo'shimchasi bilan kelgan ot qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi bilan bog'lanib, so'z birikmasi hosil qilishi haqida bilim beriladi.

MAVZU: Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi

Darsning maqsadi:

a) o'quvchilarga shaxs va narsalarning biror shaxsga qarashli bo'lishi haqida elementar nazariy tushuncha berish orqali egalik qo'shimchalaridan og'zaki va yozma nutqda savodli foydalana olish malakalarini shakllantirish. O'quvchilar nutqini otlar bilan boyitish;

b) o'quvchilarning o'quv qurollari, maktabga tegishli o'quv qurollarini saqlashda javobgarlik hissini uyg'otish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: muammoli metod.

Darsning jihozlari: o'quv qurollari tasvirlangan rasmlar (kitob, parta, qalam, chizg'ich).

Darsning borishi:

1. Rasm diktant.

O'quv qurollarining (kitob, parta, qalam, chizg'ich, daftar) rasmi doskaga ilib qo'yiladi.

O'quvchilar rasmga qarab so'zlarni yozadilar. Yozganlarini lug'atchadan tekshiradilar.

– So'zlar birgalikda nimani bildiradi? (O'quv qurollarini bildiradi.)

– O'quv qurollaridan kimlar foydalanadi? (O'quvchilar foydalanadilar.)

– Daftar sizga tegishli ekanligini qanday bildirasiz? (Mening daftaram deyman.)

– Daftaram soʻzidagi -im qoʻshimchasini olib tashlasak, maʼno oʻzgaradimi? (Daftar kimniki ekanligi tushunilmaydi.)

– Demak, -im qoʻshimchasi qanday maʼno anglatadi? (Daftarning kimga tegishli ekanini anglatadi.)

– Daftaring deyilsa-chi? (Senga tegishli ekanini anglaymiz.)

Demak, bu qoʻshimchalar daftarning kimga tegishliligini anglatadi.

2. Yangi tushunchaning bayoni: oʻzbek tilida 3 ta shaxs bor. 1 shaxs – soʻzlovchi, 2 shaxs – tinglovchi, 3 shaxs – oʻzga. Egalik qoʻshimchalari daftar uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini bildiradi.

-im, -ing, -i qoʻshimchalari egalik qoʻshimchalari deyiladi. Egalik qoʻshimchalari otlarga qoʻshiladi va shaxs, narsa-buyumlarning qaysi shaxslarga qarashliligini bildiradi.

3. Darslik bilan ishlash.

159-mashq. Oʻquvchilar mashqdagi soʻzlarning oʻzak va qoʻshimchalarini aniqlaydilar.

Kitobim – -im 1-shaxs egalik qoʻshimchasi.

Kitobing – -ing 2-shaxs egalik qoʻshimchasi.

Kitobi – -i 3-shaxs egalik qoʻshimchasi.

160-mashq.

Oʻquvchilar sheʼrni ifodali oʻqiydilar. Husnixat bilan yozadilar. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga soʻroq berib, qaysi soʻz turkumiga tegishliligini aniqlaydilar. Namunaga qarab shu soʻzlardagi qoʻshimchalarni belgilaydilar. Qoʻshimchalar qaysi shaxsga tegishliligini koʻrsatadilar.

Gultojlarim – 1-shaxs; ildizlarim – 1-sh.; atlas – 3-shaxs.

Kamalakning nusxasi iborasini izohlaydilar. Atlas rangi etti xil rangda tovlanuvchi kamalakka oʻxshatilgan.

4. Uyga vazifa.

161-mashq.

O'quvchilarga mashq sharti va matni o'qitiladi.

Quyidagi savol-javob bilan bajarish yo'li tushuntiriladi.

- Gapning bosh bo'laklarini toping.
- Otlarga so'roq bering.
- Egalik qo'shimchalari qo'shilgan so'zni aniqlang. (Nevarasi.)
- Nevarasi so'zi kimga tegishli? (Bobosiga tegishli.)
- Bobosi nechanchi shaxsni bildiradi? (3-shaxsni bildiradi.)

Shunday savollar asosida boshqa gaplardagi egalik qo'shimchasini olgan otlarni aniqlashga matnni husnixat bilan yozish vazifasi beriladi. Aniqlagan otlarining egalik qo'shimchalarini tegishlicha belgilash, qavs ichida shaxsini ko'rsatish vazifasi beriladi.

5. Darsni yakunlash.

Test.

3-shaxsdagi ot qo'llangan gapni aniqlang.

A. Mening ola-bula buzoqcham bor.

V. Sening sharing katta ekan.

S. Uning oldiga onasi keldi.

6. O'quvchilarni rag'batlantirish.

MAVZU: Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi

Darsning maqsadi:

a) o'quvchilarga egalik qo'shimchalarini olgan otlar imlosini o'rgatishda ularning lug'atini poy, xok, suruv so'zlari bilan boyitish;

b) o'quvchilarni kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish ruhida tarbiyalash. Ularni mehnatsevarlik, o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: muammoli metod.

Darsning jihozlari: narsa rasmlari

Darsning borishi:

1. O‘tilgan mavzu – otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi yuzasidan o‘quvchilar bilimi savollar yordamida aniqlanadi. Uyga berilgan mashq o‘qitiladi.

2. Lug‘at diktant

O‘qituvchi ot so‘z turkumidagi so‘zlarni o‘qiydi.

Rahbar, bahor, odob, tartib, sovg‘a, parta.

– So‘zlarga 1-shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasini qo‘shib yozadilar.

(Rahbarim, bahorim)

– Rahbarim so‘ziga qanday qo‘shimcha qo‘shilgan? (-im qo‘shimchasi qo‘shilgan.)

– Sovg‘am so‘ziga-chi? (-m qo‘shimchasi qo‘shilgan.)

– O‘ylang. Nima uchun rahbar so‘ziga -im, sovg‘a so‘ziga -m qo‘shimchasi qo‘shilgan? (Chunki rahbar so‘zi undosh tovush bilan tugagan, sovg‘a so‘zi unli tovush bilan tugagan.)

– Undosh bilan tugagan so‘zlarda egalik qo‘shimchasi, unli tovush bilan tugagan so‘zlarda faqat -m shaklida qo‘shiladi.

– Bu so‘zlarga 2- va 3- shaxs egalik qo‘shimchalarini ham qo‘shib ko‘ring. (Rahbaring, rahbari; sovg‘ang, sovg‘asi.)

O‘quvchilar qolgan so‘zlarga ham egalik qo‘shimchasini qo‘shib, farqini aytadilar.

3. Mavzu bayoni.

Yuqoridagi so‘zlarga egalik qo‘shimchalarini qo‘shib bildikki, egalik qo‘shimchalari undosh tovushlardan so‘ng: -im, -ing, -i; -imiz, -ingiz, -lari; unli tovushlardan so‘ng: -m, -ng, -si; -imiz, -ngiz, -lari shaklida qo‘shiladi.

4. Darslik bilan ishlash.

162-mashq.

O‘quvchilar she’rni nuqtalar o‘rniga mos egalik qo‘shimchalarini qo‘yib, ifodali o‘qiydilar. Husnixat bilan yozadilar. So‘roqlar yordamida otlarni

aniqlaydilar. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlab, ustiga yozadilar.

Namuna. Barmoqchalari (3-shaxs), bayroqchalaring (2-shaxs).

She‘rdagi jajji, ovunchoq so‘zlarining aytilishi va yozilishidagi farqni ko‘rsatadilar.

Jajji so‘zi jaji tarzida 4 tovush bilan aytilsa ham, 5 harf bilan jajji tarzida yoziladi.

Ovunchoq tarzida u tovushi o‘rniga i aytilsa ham, ovunchoq deb yoziladi.

Jajji so‘ziga ma‘nodosh so‘z topiladi. Jajji – kichkina, mitti.

162– 163-mashqlar bajariladi.

5. Uyga 164-mashq beriladi.

6. Lug‘at ishi. poy – (oyoq tojikcha so‘z); xok – tuproq, loy; suruv – qo‘ylarning podasi.

Mashq sharti mustaqil ravishda bajartiriladi. O‘quvchilar so‘roqlar yordamida otlarni aniqlab, egalik qo‘shimchalarining tagiga chizadilar. Qavs ichida shaxsini yozadilar.

MAVZU: Egalik qo‘shimchalari qo‘shilgan otlarda tovush o‘zgarishlari

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning egalik qo‘shimchalari qo‘shilishi bilan so‘z o‘zagidagi o‘zgarishlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash. She‘rlarni yoddan yozish ko‘nikmasini shakllantirish. Topishmoqlar orqali o‘quvchilarning zihnini o‘stirish;

b) mashqda berilgan maqollar orqali o‘quvchilarda do‘stlik, mehnatsevarlik, ilmga chanqoqlik fazilatlarini shakllantirish

Darsning turi: mustahkamlovchi dars.

Darsning metodi: izlanishli, muammoli metod.

Darsningjihozlari: narsa (etik, bayroq), o‘g‘il (shaxs) rasmlari, darslikdagi jadvallar.

Darsning borishi:

1. Eshituv diktanti.

O'quvchilar eshitgan so'zlarni esda saqlaydilar. Ichkarida bo'g'inga bo'lib yozadilar.

Ko'nglim, etigim, bayrog'imiz, bulog'i, bilagi, shahrimiz, o'g'lim, qorning.

2. O'tilganlar yuzasidan suhbat:

– Egalik qo'shimchalarini ayting.

– Egalik qo'shimchalari shaxs va narsalarning qaysi shaxslarga tegishliligini bildiradi.

– Egalik qo'shimchalari undosh tovush bilan tugagan so'zlarga qanday shaklda qo'shiladi?

175-mashq matni asosida doskaga burun, og'iz, shahar -im burnim, og'zim, shahrim chizmasi ilinadi.

burun -im burnim

og'iz -im og'zim

shahar -im shahrim

O'quvchilarda burun so'zida nechta tovush va nechta harf borligi aniqlatiladi. Unga -im egalik qo'shimchasi qo'shtiriladi: burun+im. So'ng hosil bo'lgan so'z talaffuz qildiriladi. O'zakdagi qaysi tovush aytilmayotgani va eshltilmayotgani so'raladi.

Burnim so'zining o'zak va qo'shimchalari belgilatiladi: burnim. O'zakdagi u tovushi -im egalik qo'shimchasi qo'shilganda tushib qolishi tushuntiriladi. Qolgan so'zlarni o'quvchilarning o'zlari izohlaydilar.

Bu ma'lumot amaliy ahamiyatga ega. Chunki o'quvchi egalik qo'shimchali otlarni, tovush o'zgarishi yuz bergan otlarni og'zaki va yozma nutqida qo'llaydi. Yuqoridagi kabi kuzatuv, so'zning talaffuzi va buzilishini taqqoslash o'quvchilarning to'g'ri yozuvga ongli munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

3. Darslik bilan ishlash.

176-mashq. Mashqni sharti o'quvchilarga o'qitiladi. Mashq shartidagi talabni tushuntirib berishlari so'raladi. Mashqdagi har bir gap bir o'quvchiga o'qitiladi.

Egalik qo'shimchasini olgan ot aniqlatiladi. Bunda quyidagi o'ylovchi savollar va topshiriqlardan foydalaniladi:

So'roq berib birinchi gapdagi otlarni toping. Shu otni doskaga yozing. Egalik qo'shimchasini olgan otning o'zak va qo'shimchasini belgilang. Egalik qo'shimchasini tushurib, so'zni ayting (mag'iz). Egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'zda qanday tovush o'zgarishi yuz beradi?

Mashqdagi qolgan egalik qo'shimchasini olgan ot shu tarzda tahlil qilinadi.

Mashq bajarib bo'lingach, o'quvchilarning o'ziga xulosa chiqartiriladi: Ba'zi otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda o'zakda i tovushi tushishi mumkin.

177-mashq orqali o'quvchilar otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'z oxiridagi k tovushining g tovushiga, q tovushining g' tovushiga almashinishini bilib oladilar. So'zning egalik qo'shimchasini olmagan holati bilan egalik qo'shimchasi qo'shilgan holatni kuzatadilar, ularni talaffuz qiladilar.

O'qituvchi etigi, bayrog'i, tarog'i so'zlarini qanday talaffuz qilsangiz, shunday yozasiz degan xulosani aytadi.

O'quvchilar so'zlarni bilak+i – bilagi, etik+i – etigi tarzida yozadilar.

178-mashqda xalq, xulq, erk, ishtiyoq, ishtirok, non so'zlariga egalik (-im yoki -i) qo'shimchasini qo'shish va so'zlarning talaffuzini kuzatish orqali ot o'zagida doim o'zgarish bo'lmasligini bilib oladilar. O'qituvchi oxiridagi tovushi o'zgarmaydigan so'zlarning ham talaffuziga e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi.

Quyidagi savol bilan o'quvchilarga xulosa chiqartiriladi: otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda o'zakda qanday o'zgarish bo'ladi?

Shundan so'ng kitobdagi ta'rif o'qitiladi.

4. Test.

Egalik qo'shimchasi qo'shilishi bilan so'z o'zagida o'zgarish bo'lgan so'zlar qatorini belgilang.

A. Oyog'i, qanoti.

V. Chirog'i, qorni.

5. Dars o'quvchilar javobini umumlashtirish va 179-mashqni uyga berish bilan yakunlanadi va o'quvchilar rag'batlantiriladi.

3-§. 4- sinfda “Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan ishlatilishi”

mavzusini o'qitishda o'quvchilar yozma nutqini o'stirish

Kelishiklar sintaktik kategoriya hisoblanadi, kelishik otlarning gapda boshqa so'zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o'rgatishda o'quvchilarning gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklar ustida ishlashni o'quvchilar gapda ma'no va grammatik tomondan bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) ajratishga o'rganganlaridan so'ng boshlanadi. Kelishiklar ustida ishlash gapda so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash hamdir. Kelishiklarni bilish uchun o'quvchi ot gapda qaysi so'z bilan bog'lanishini aniq bilishi kerak. Ot gapda boshqa so'zlar bilan bog'langanda qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Aslida o'quvchilar birinchi sinfdayoq so'z shaklining o'zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so'z shakli nimaligini hali bilmaydilar. Bolalar keyingi sinfda shakl yasovchi (so'z o'zgartiruvchi) qo'shimchalar bilan tanishadilar, bu qo'shimchalar gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishini tushunadilar.

III sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish; 2) Ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish; 3) Har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rgatish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

MAVZU: Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi

Darsning maqsadi:

a) otlarning gapda boshqa so'zlar bilan kelishik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi, kelishik qo'shimchalari, uning nomlari, so'roqlari va vazifasi

yuzasidan elementar amaliy bilim berish. Kutubxona, qal'a so'zlarining yozilishi va ma'nosini bilib olish orqali o'quvchilarning lug'atini boyitish, savodxonligini oshirish;

b) o'quvchilarda mehnatga havas uyg'otish, kitobning inson uchun foydali tomonlarini yoritib berish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: yarim izlanishli muammoli metod.

Darsning jihozi: "Otlarning kelishiklar bilan qo'llanishi" jadvali.

Darsning borishi:

1. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash.

2. Mustaqil ish.

Doskaga so'zlar yozib qo'yiladi. O'quvchilar quyiroqda berilgan so'roqlarga ko'ra so'zlarni joylashtirib, gap tuzadilar.

Koptogini o'ynadik Komilning biz.

Kim? kimning? nimasini? nima qildik?

Cho'mildi Ahmad anhorda.

Kim? qaerda? nima qildi?

Tuzilgan gaplar asosida gapda so'zlar o'zaro bog'lanadi, degan xulosa chiqariladi.

Yangi mavzuni tushuntirish. (185-mashq matni asosida)

Doskaning chap tomoniga mashqning matni yozib qo'yiladi.

Ajratilgan so'zlar orqali o'quvchilar har bir gapda qo'llangan mehnat so'ziga so'roq beradilar va mehnat so'zini o'zi bog'langan so'z bilan aytadilar. O'quvchi doskaga yozib boradi:

nima? tarbiyalaydi – mehnat tarbiyalaydi;

nimani? seving – mehnatni seving;

nimaga? o'rgating – mehnatga o'rgating;

nimada? sinaladi – mehnatda sinaladi;

nimadan? kelsa – mehnatdan kelsa.

Doskaning o'ng tomoniga -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari yozib boriladi.

O'quvchilarga shu qo'shimchalarni tushirib o'qish topshiriladi. So'zlar o'zaro bog'landimi? -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti? (Gapda so'zlarni bir-biriga bog'layapti).

– Eslang, bu qo'shimchalar qanday qo'shimchalar deyilar edi?

– So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar qaysi so'z turkumidagi so'zlarga qo'shilgan? (Ot turkumidagi so'zlarga qo'shilgan).

O'quvchilarga "Otlarga qo'shilgan bu qo'shimchalarni yana nima deb nomlash mumkin?", – degan muammoli savol beriladi.

Bu savolni o'qituvchi bitta gap bilan hal qiladi: otlarga qo'shilgan -ning, -ni, -ga, -da, -dan kelishik qo'shimchalaridir.

– Doskaning o'ng tomonidagi qo'shimchalarni kuzating. Otlarda nechta kelishik bor ekan?

(Bolalar 5 ta turga bo'lish mumkin deb o'ylaydilar.)

O'qituvchi doskaga kelishiklar jadvalini iladi. Bolalarga jadvalni kuzatish va kelishiklar yuzasidan beriladigan savollarga tayyorlanish topshiriladi. (O'quvchilar o'qituvchi beradigan savollarni bilmaydi. Lekin jadvalni sinchiklab kuzatishim kerak, degan xulosaga boradi.) jadval olib qo'yiladi.

O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

– Otlarda nechta kelishik bor va qanday nomlanadi?

– Kelishiklarning nomini kim tartibi bilan ayta oladi?

– Har bir kelishik o'zining nimasiga ega?

– Qaysi kelishikning qo'shimchasi yo'q?

O'quvchilar doskadagi birikmalarni daftarlariga yozib oladilar.

Shu savollar bilan o'quvchilarning dastlabki tushunchalari aniqlanadi. O'quvchilarning tushunchalarini to'ldirish, bilimlariga aniqlik kiritish maqsadida darslikdagi mashqlar ustida ishlanadi.

3. Darslik bilan ishlash.

186-mashq. Mashqning shartiga ko'ra o'quvchilar kelishikning nomlarini, so'roqlarini daftarga yoddan yozishadi. Yozganlarini darslikdan tekshirishadi. Bu mashq orqali o'quvchilar o'zlarining kelishik haqidagi tushunchalarini xotirada saqlab mustahkamlashadi.

187-mashq. Mashqning shartiga ko'ra matnda takrorlanib kelgan kitob so'zi aniqlanadi. Kitob so'zini ajratib ko'rsatilgan so'z bilan birga ko'chiradilar. Kitob so'ziga qo'shilgan kelishik qo'shimchalarining nomi so'raladi. O'qituvchining kelishik qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti? degan savoliga, kelishik qo'shimchalari gapda otlarni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qilyapti, degan javob olinadi.

4. Lug'at ishi.

Qal'a – qasr, qo'rg'on.

“Kitob aql qal'asidir” gapida aql qal'asi birikmasining ma'nosi ustida ishlanadi. Qal'a – so'zida tutuq belgisini tushirib qoldirganda, so'z ma'nosida qanday o'zgarish yuz berishi aniqlanadi. Kitob, do'st, avlod, ajdod, kelajak so'zlarining yozilishi va talaffuzi taqqoslanadi.

5. 188-mashq uyga beriladi. O'quvchilar mashqning sharti bilan tanishtiriladi. Mashq namunasi doskada yozib ko'rsatiladi. Kutubxona so'zining yozilishiga e'tibor qaratiladi.

6. Darsni yakunlash.

– Darsda nimalarni bilib oldingiz?

Bu savolga umumiy javob olinadi. O'quvchilar fikrini to'liq yoki izchil ifodalashi uchun quyidagi savollardan ham foydalanish mumkin:

- Gapda otlar boshqa so'zlarga qaysi qo'shimchalar yordamida bog'lanadi?
- Kelishik qo'shimchalarini ayting.
- Bosh kelishikdagi ot qanday so'roqqa javob bo'ladi?
- Qaratqich, tushum kelishiklaridagi otlar-chi?
- Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklaridagi otlar-chi?
- Kelishik qo'shimchalari qanday vazifa bajaradi?

- Mehnat haqida qanday maqollar bilasiz?
- Mehnat qilish va ilm olish orqali nimaga erishasiz?
- Kitob bizni nimaga o‘rgatadi?
- Maktab kutubxonasiga yozilganmisiz? kabi savollar bilan o‘qituvchi darsni yakunlaydi.

4-§. “Ot yasovchi qo‘shimchalar” mavzusini o‘qitishda tarqatma materiallardan foydalanib, o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish

Umumiy o‘rta ta’limning to‘rtinchi sinfida “Ot yasovchi qo‘shimchalar” mavzusi mustahkamlovchi dars sifatida tashkillanadi, chunki o‘quvchilar uchinchi sinfda ot yasovchi -chi, -dosh -kor qo‘shimchalari bilan nazariy va amaliy tanishgan. Tahlilimizning bu qismida to‘rtinchi sinf ona tili darlarida ot yasovchi qo‘shimchalar bilan mustahkamlovchi darslarni tashkil qilishda o‘quvchilarning yozma nutqlarini rivojlantirishning biz tomonimizdan tavsiya etilgan usullari bilan tanishib chiqsak.

MAVZU: Ot yasovchi qo‘shimchalar

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarda ot yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi ma’nodagi ot yasash orqali tilda so‘zlarning boyib borishi haqida elementar ma’lumot hosil qilish. So‘zlardan maqsadga muvofiq foydalana olish malakalarini takomillashtirish;

b) o‘quvchilarning kasblar haqidagi tushunchalarini aniqlash va har bir kasbning o‘ziga xos qiziqarli tomonlarini ochish orqali ularni kasbga yo‘naltirish.

Darsning metodi: izlanishli suhbat metodi.

Darsning jihozlari: narsa va turli kasb egalarining rasmlari, gulzor, gulchi, bog‘bon tasvirlangan mazmunli rasm.

Darsning borishi:

1. Uyga berilgan vazifani tekshirish.

2. Doskaning bir tomoniga gul, osh (palov), soat, tennis o'yini aks etgan rasmlar, ikkinchi tomoniga guldon, oshpaz, soatsoz, tennischi rasmlari ilib qo'yiladi.

– Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?

O'quvchilar birinchi tomondagi rasm nomlarini aytadi. Ularga so'roq beradilar (nima?). Ikkinchi tomondagi rasmlarni ko'radilar, nomini aytadilar. Ularga ham so'roq beradilar (nima?, kim?)

– Guldon so'zi nimani nomlayapti? Bu so'z qanday ma'noni anglatyapti? (Gul solinadigan idish nomini bildirib, yangi ma'noni anglatadi.)

– Osh so'zi nimani anglatyapti? (Taomni anglatyapti.)

– Oshpaz so'zi-chi? (Oshpaz so'zi oshni tayyorlaydigan insonni bildiradi).

– Soatsoz so'zi-chi? (Soat tuzatadigan inson ma'nosini bildiradi).

– Tennischi so'zi tennis o'yinini bildiradimi? (Tennischi so'zi tennis o'yinchisi ma'nosini bildiradi).

Doskaning ikki tomoniga rasm nomlari savol-javob jarayonida yozib boriladi:

gul guldon

osh oshpaz

soat soatsoz

tennis tennischi

O'quvchilarga so'zlarning o'zak va qo'shimchalarni belgilash vazifasi beriladi: bunda 3-sinfda o'rgangan qo'shimcha turlarini eshlashlari aytiladi. gul – gulli

Qilingan ishlar savol-javob bilan yangi mavzuni yoritadi.

– Nima uchun -chi qo'shimchasini burchakli chiziq bilan belgiladingiz?

(So'z yasovchi qo'shimcha bo'lgani uchun burchakli chiziq bilan belgiladim).

Xulosa chiqariladi: Har ikki tomondagi so'zlar ma'nosiga ko'ra farqlanadi. Ularning ayrimlari so'roqlariga ko'ra ham farqlanadi.

– Bu qo'shimchalar qanday ma'nodagi so'zlarni yasayapti?

-don, -paz, -soz, -chi qo'shimchalari qanday vazifani bajarar ekan? (YAngi ma'nodagi so'zlarni yasay ekan.)

– Yasalgan so'zlarga so'roq bering. Bu so'zlar qaysi turkumga kiradi? (Ot so'z turkumiga kiradi.)

– Ot so'z turkumidagi yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalarni qanday nomlash mumkin? (Ot yasovchi qo'shimchalar deb nomlash mumkin).

Xulosa chiqariladi:

-chi, -zor, -dosh, -kor, -k, -q ot yasovchi qo'shimchalardir.

3. Darslik bilan ishlash.

255-mashq. O'quvchilar she'ni ifodali o'qiydilar. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, turkumini aniqlaydilar. So'zlarni daftarga yozib, o'zak-qo'shimchalarga ajratadilar.

Gullar, chegarachi, ishchi, binokor, marmar, zardan.

Suhbat yo'li bilan o'quvchilar bilimi aniqlanadi:

– Qaysi so'zlarda so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar bor?

(Zardan so'zida –dan – so'z o'zgartuvchi qo'shimcha).

-dan qo'shimchasi qaysi kelishikning qo'shimchasi? (-dan chiqish kelishigining qo'shimchasi.)

-lar qanday qo'shimcha? (-lar ko'plik qo'shimchasi.)

-chi, -kor qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti? (YAngi ma'nodagi ot yasayapti.)

– Bu qo'shimchalarni nima deb nomlagandik? (Ot yasovchi qo'shimcha deb nomladik.)

Ot yasovchi qo'shimchalarni, umuman yangi ma'no yasaydigan qo'shimchalarning belgisi bilan belgilaymiz. Chegarachi, binokor.

256-mashq. O'quvchilar so'zlarni o'qib, yonida berilgan ot yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yadilar. Hosil bo'lgan so'zlarni husnixat bilan daftarlariga yozadilar: sinfdosh, uzumzor, soatsoz, gulzor, tennischi va hokazo.

Berilgan va hosil bo'lgan so'zlarga so'roq berib, qaysi turkumga kirishini aniqlaydilar.

257-mashq. O'quvchilar berilgan so'zlardan foydalanib, hikoya tuzadilar. Sinf guruhga ajratiladi.

- Gulzor qaerda joylashgan?
- Kim gullarni parvarish qilyapti?
- Gullarga kim suv quyadi?
- Gullar nima bilan tirik?

Tuzilgan hikoya daftarga yozdiriladi.

Hikoyadagi ot yasovchi qo'shimcha olgan so'zlar aniqlatiladi va yasovchi qo'shimcha tegishlicha belgilanadi.

4. Uyga vazifa.

258-mashq. O'quvchilarga berilgan so'zlarga -kor, -zor qo'shimchalarini qo'shib yozish, mashqni shu kabi so'zlar bilan davom ettirish topshiriladi.

Xulosa. Ot turkumiga oid bilimlar berish orqali o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishning ma'naviy-axloqiy omillari

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga etkaza bilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirish, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy hikmatlarni singdira bilishi lozim.

Mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o'quvchilarni dars jarayonida maqsadni boshqara olish o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Davlatimizning mustaqilligi tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, ta'lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq.

Shunday ekan, avvalo, o'qituvchiga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumoti va malakasini oshirishda «...bir qolipdagi ta'lim-tarbiya tizimiga xos sarqitlardan qutilish» zarur. Yoshlarning ilmiy ijodiy faoliyatini chegaralamaydigan, uni faol tinglovchiga emas, balki faol ijodkorga aylantiradigan kashfiyot ta'lim usuli bilan ishlash o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarini yo'lga qo'yadigan to'g'ri va samarali imkoniyatlarni topish va ishga solish zarur.

O'quvchilarni to'g'ri, tushunib va ifodali o'qishga o'rgatish, o'qish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida xam muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri tushunib va belgilangan me'yorda ifodali o'qish malakalari yaxshi rivojlansa, ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ot turkumini o'tishda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish esa o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllarini, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida qo'llab borishi lozim.

O'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri va oqilona boshqara olishi o'quvchi shaxsi kamolotida nihoyatda ahamiyatli. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoyilik hamda tajriba talab etadi. Zero, yosh avlodni chuqur bilimli, mustaqil fikrleydigan qilib tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasidadir.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan etuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim". SHunday ekan, o'quvchi o'z xohishi bilan o'qishi uchun o'qituvchi bor kuch, mahoratini ishga solmog'i kerak. ya'ni noan'anaviy, bir-biriga o'xshamagan usullardan foydalanib o'quvchilarga bilim bermog'i lozim.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish davomida quyidagi xulosalarga keldim:

1. So'z turkumlarini o'rgatishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini tarkib toptirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, so'zlarni ma'nosini aniq tushunishga erishish, nutqidagi u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirishdan iborat.

2. Otni o'rgatishga tayorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar narsalarni, ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar. Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida ishlanadi. Kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi ularni farqlashni

o'rganadilar. II sinfda otlarning leksik ma'nosi haqidagi bilimi chuqurlashtiriladi. III sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

IV sinfda o'quvchilarning yuqorida olgan bilimlari chuqurlashtiriladi.

3. O'quvchiga ot so'z turkumini o'rgatishda muammoli ta'lim vositalardan foydalanish otni o'zlashtirishda nutq o'stirish uchun muhim ta'limiy vosita hisoblanadi. O'quvchining fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

4. IV sinfda ot so'z turkumi ustida ishlashda noanaviy usullardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi, yozma nutqini o'stiradi. O'quvchilarda ot turkumi haqida tushuncha hosil qilish uchun otning shaxs-narsa tushunchasini bildirishi – xarakterli grammatik belgilari va nutqimizdagi vazifasi haqida ma'lumot berishga erishishimiz zarur.

5. IV sinfda o'quvchilarga egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi, qo'shimchalar uch shaxsga bo'linishi, ular gapda so'zlarni bir-biriga bog'lashligi tushuntirilib boriladi. Hamda otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi otlarda oltita kelishik borligi o'quvchilar ongiga singdirish barobarida ularning yozma nutqlari rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q., Yusupov M. Diktantlar to'plami. Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 76 b.
2. Ashrapova T., Odilov I. Ona tili metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
3. Azizova A. va boshq. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Boshlang'ich sinf davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim, 2005. – №5. – B.5-33.
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
6. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 192 b.
7. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so'zi. 2011- yil 22-yanvar, №16 (5183)
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Mirzayev A. Diktant metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1979.
11. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B. 216.
12. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Cho'lpon, 2009.
13. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
14. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.
15. Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, 2010. – 136 b.
16. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992.

- 17.Umarova M. Bayonlar to‘plami. Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
- 18.Vazirlar Mahkamasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlari. Xalq ta’limi. 1997. – №1.
- 19.Xudoyberganova M. va boshqalar. Ikkinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
- 20.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyaasoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
- 21.Yusupov M. O‘qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
- 22.Yusupova M. Diktantlar to‘plami. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
- 23.O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Toshkent: FAN, 1976. – 610 b.
- 24.O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
- 25.G‘ulomov A. 4- sinfda ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari. Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
- 26.G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- 27.G‘ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
- 28.G‘ulomova H. va boshqalar. Birinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
- 29.G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. To‘rtinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
- 30.Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1980.